

ITALYAN VA O'ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING
TARJIMASIDAGI O'XSHASHLIKLAR

Xudoyqulov Behzod

DTPI o'qituvchisi,

behzod_xudoyqulov@dpi.uz

ANNOTATSIYA: Italyan tili ham boshqa tillar kabi frazeologik iboralarga boy til hisoblanadi. Shuning uchun ularni turli tomondan tadqiq etish va o'ziga xos jihatlarni o'rganish lug'at boyligini oshirish hamda italyan tili bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Ushbu maqolada italyan tilidagi frazeologik iboralarning tarjimalari va ularning O'zbek tili bilan o'xshash jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Frazeologik birlik, frazeologik ibora, tarjima, shakl va ma'no, ko'chma ma'no, ekvivalent.

SIMILARITIES IN THE TRANSLATION OF PHRASEOLOGISMS IN
ITALIAN AND UZBEK LANGUAGES

Khudaykulov Bekhzod

Teacher, Denau institute of entrepreneurship and pedagogy.

behzod_xudoyqulov@dpi.uz

ANNOTATION: The **phraseological unit** is a part of national culture of each language, also in Italian it plays important role. Besides, research and investigate on peculiarities of **phraseological units are essential**. This article aimed at investigating some similarities of phraseological expressions in Italian and Uzbek languages. Theoretical data about phraseological expressions are discussed and analyzed with reasonable examples.

Key words: Phraseology, idioms, phraseological unit, translation, meaning, figurative meaning.

Frazeologizmlar barcha tillarda ham qiziqarli mavzulardan bo'lib, ularni so'zma-so'z tarjima qilish imkonsiz. Frazeologik iboralar tilni jonlantiradi, ular jilolangan va tilda alohida o'rin egallaydi. Ko'pincha ular tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati va tarixi bilan bog'liq.

Frazeologizmlar birdan ortiq so'zning birikuvidan tarkib topib, so'z kabi bir tushunchaga asoslangan ma'no bildiradi. Lekin, uning tarkibida bir nechta so'z bo'lishiga qaramay, bir so'z kabi bir lug'aviy birlik hisoblanadi. U, so'zlar birligidan tarkib topgan birikma yoki predikativ qo'shilma qolipli bo'lsa ham, birikma yoki

predikativ qo'shilma kabi nutq jarayonida yuzaga kelmaydi, balki tilda tayyor lug'aviy birlik holatida bor ekanligi holda, nutq uchun shundayligicha tanlanadi. Ana shu nuqtada frazeologik birliklar leksikalizatsiya hodisasi bilan «kesishadi» Shu sababli frazeologik birliklar va leksikalizatsiya hodisasining o'zaro munosabatini tekshirish muhimdir. Shu bilan birga, frazeologizmlarda xalqning yorqin milliy hususiyatlari mujassam bo'ladi, ular chuqur va boy ma'noga ega bo'lishi bilan bir qatorda, nutqqa alohida ko'rk va ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

Turli xalqlar frazeologik birliklarning har jihatdan o'xshashligi aksariyat hollarda xalqlar turmush sharoitlari, urf-odatlari va mantiqiy mushohadalaridagi mushtaraklik bilan izohlanadi. Zero, boshqa til vositalari singari frazeologizmlar ham turli-tuman umuminsoni fikr bayon qilish me'yorlari va hayotiy kuzatishlar asosida vujudga keladilar. Natijada turli tillar barqaror so'z birikmalari bir xil obrazli asosdan iborat bo'lib qoladilar.

Italyan va o'zbek tillarida ham bir-biriga o'xshash frazeologik iboralar mavjud bo'lib ularning ayrimlarini quyidagi misollar orqali tahlil qilamiz:

- **Mangiare come un uccellino** - So'zma so'z tarjimada, "qushdek oziqlanish", Ibora holatida esa, juda kam ovqatlanish ma'nosida ishlatiladi. Masalan: "*Che magra è tua sorella!*" "*Per forza, mangia come un uccellino*" – Singlingiz qanday ozg'in qiz-a.. Albatta, chunki, juda kam ovqatlanadi.
- **È acqua passata** – So'zma-so'z tarjima qilganda quyidagicha bo'ladi: Bu oqqan suv. Ibora sifatida quyidagicha bo'ladi: O'tgan/unutilgan narsa. Havotir olma, u (narsa) o'tib ketdi.
- **Mandare all'aria** - So'zma so'z tarjimada, "havoga yuborish". Ibora holatida esa, biror bir vaziyatni yo'q qilish, buzish ma'nosida keladi. Masalan: "*Mio fratello ha mandato all'aria il suomatrimonio perché si è innamorato di una ragazza di vent'anni*" – Akam 20 yoshli qizni sevib qolganligi uchun to'yini buzdi.
- **Piangere sul latte versato** - So'zma so'z tarjimada "to'kilgan sut uchun ko'zyosh to'kish" Ibora holatida esa, o'tgan voqea-hodisa uchun achinish ma'nosida ishlatiladi. Masalan: "*Mi sono sbagliata, non volevo buttar via il tuo libro*" "*Mi spiace, ormai è fatta, è inutile piangere sul latte versato*" – Kechirasiz men xato qildim, kitobingizni tashlab yubormoqchi emasdim.- Kechirasiz bo'ldi endi o'tgan ishga achinishning hojati yo'q.
- **Promettere mari e monti** - So'zma so'z tarjimada, "dengiz va tog'larni vada qilish" Ibora holatida esa, ko'p narsalarni va'da qilish ma'nosida keladi. Masalan: "*Come mai hai cambiato lavoro?*" "*Mi avevano promesso mari e monti, ma non mi hanno mai aumentato lo stipendio!*" – Nega ish joyingizni o'zgartirdingiz, Ular juda ko'p narsalarni va'da qilishgan edi, biroq maoshimni oshirishmadi.

- **Dare una mano** - Yordam qo'lini cho'zmoq/yordam bermoq¹.
- **Di seconda mano** - Ishlatilgan, qo'ldan – qo'lga o'tgan narsa buyum (avtomobil) ga nisbatan ham ishlatiladi.
- **Chiedere la mano** - Qo'lini so'ramoq (qiz boladan turmushga chiqishini so'ramoq) ma'nosida ishlatiladi.
- **Essere in gamba** - O'zini o'nqlab olgan, oyoqqa turgan.
- **Avere il cuore di fare qualcosa (Avere il coraggio di fare qualcosa.)** - Ushbu ibora, Biror narsani bajarishga jasorati bo'lmoq – degan m'noda ishlatiladi
- **Rubare il cuore a qualcuno (Fare innamorare qualcuno.)** - Biror kishining yuragini o'g'irlamoq, deb tarjima qilinadi aslida. Ibora, Biror kishini o'ziga rom qilmoq, sevdirmoq ma'nolarini beradi.

O'zbek tilidagi iboralarni chet tillarida va aksincha chet tillardagi iboralarni to'g'ridan to'g'ri asliyat tilidan o'zbek tilidagi tarjimada aks ettirish alohida ahamiyatga ega².

Boshqa tillar kabi italyan tilida ham frazeologik iboralar mavzusi qiziq va munozarali mavzulardan biri bo'lib, o'rganilayotgan xorijiy tilda so'zlashadigan insonlarning hayot tarzini, urf – odatlarini ifodalash uchun muhim manbaalardan biri hisoblanadi. Bu esa italyan tilini o'rganishdan tashqari italiyanlarning frazeologik iboralarni qo'llash darajasi va ularni kundalik hayotiga nechog'lik bog'liqligini tushinishga ham yordam beradi.

Mazkur maqolada keltirilgan italyan tilidagi iboralar va ularning tahlili – italyan tilini o'rganuvchi talabalarga foydali manbaalardan biri hisoblanadi.

¹ Oltiev T., Xudoyqulov B. "Italyan tilidagi iboralarning tarjimasi" lug'ati. – 2021.T.

² Xudoyqulov B., Jumayeva M. FRAZEOLOGIK IBORALARNING TEMATIK VA SEMANTIK TAHLILI (ITALYAN TILIDAGI IBORALAR MISOLIDA) //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 698-706.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oltiev T., Xudoyqulov B. Italyan tilidagi iboralarning tarjimasi" lug'ati. – 2021.
2. Khudaykulov B., Abdumalikov F. The Equivalence of the Italian and Uzbek Phrase logical Units. – 2022.
3. Xudoyqulov B., Tursunov U. ITALYAN HIKOYALARIDA FRAZEOLOGIK IBORALARNING BERILISHI (“GIALLO A CORTINA” VA “LA STRANIERA” HIKOYALARI MISOLIDA) //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B7. – C. 1315-1318.
4. Худайкулов Б. ITALYAN TILIDAGI AYRIM IBORALARNING TAJIMASI XUSUSIDA (“Non” va “suv” konsepti bilan ifodalangan iboralar misolida) //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 6.
5. Xudoyqulov B., Jumayeva M. FRAZEOLOGIK IBORALARNING TEMATIK VA SEMANTIK TAHLILI (ITALYAN TILIDAGI IBORALAR MISOLIDA) //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 698-706.
6. Xudoyqulov B. FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI (italyan tilidagi iboralar misolida) //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 11. – C. 945-951.